



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 5/2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 9, НОМЕР 5/2

LOOK TO THE PAST
VOLUME 9, ISSUE 5/2



ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ермегов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайдон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Баҳадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Аҳмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллажаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

Турсунова Юлдуз Бобоқулловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Zamira Ishonxo‘jayeva, Ra‘no Maxkamova IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O‘ZBEKISTON SSRDAGI AHOLI EVAKUATSIYASI MASALALARI (R-314 FONDI MATERIALLARI ASOSIDA).....	5
2. Dilrabo Babajanova XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA O‘ZBEKISTON YO‘L XO‘JALIGIDAGI TIZIMLI ISLOHOTLAR. (AVTOMOBIL YO‘LLARI* MISOLIDA).....	11
3. Jaxongir Inayatov MUSTAQILLIK YILLARIDA FOTOGRAFIYANING OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA JAMOATCHILIK HAYOTIDAGI O‘RNI.....	18
4. Nurbek Matyakubov METROPOLITENLAR SOHASIDAGI XALQARO HAMKORLIK ALOQALARI TARIXIDAN.....	24
5. Nodira Radjabova “BUXORCHA” VA “MAVRIGIXONLIK”: ISTIQLOL YILLARIDA YUKSALISH, IJRO VA IJROCHILIK MAHORATI.....	30
6. Abdulxamid Anarbayev, Shukrullo Nasriddinov AXSIKENT ARXEOLOGIYA PARKINING TASHKIL ETILISHI VA UNING TURIZMNI RIVOJLANISHTIRISHDAGI O‘RNI.....	38
7. Sevara Yusupova O‘ZBEKISTONDAGI KAM SONLI MILLAT VAKILLARINING IJTIMOIIY VA MADANIY HAYOTDAGI ISHTIROKI.....	43
8. Гулчехра Абдулхай ЎЗБЕКИСТОН ТАРИХШУНОСЛИГИДА ТУРКИСТОН АССРНИНГ ТАРИХИНИ ЎРГАНИШДА СОВЕТ ҒОЯВИЙ КОНЦЕПЦИЯСИНИНГ ҚАРОР ТОПИШИ ВА РИВОЖЛАНТИРИЛИШИ МАСАЛАЛАРИ (1925-1950 йиллар).....	46
9. Наргиза Каримова ВЫРАЩИВАНИЕ, ПРОИЗВОДСТВО И ТОРГОВЛЯ БАКАЛЕЙНЫМИ ТОВАРАМИ В УЗБЕКИСТАНЕ В СОВЕТСКИЙ ПЕРИОД.....	58
10. Erkinjon Kenjayev XVI–XIX ASRLARDA MARKAZIY OSIYODA TA‘LIM TIZIMINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI: O‘QUV DASTURLARI VA SXOLASTIKA MUAMMOSI.....	63
11. Шоҳида Давурова ЎРТА ОСИЁ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ ОЛИМЛАРИ ҲУЖЖАТЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ (кимёгар олимлар мисолида).....	67
12. Dilshod Xolmurodov, Shaxobiddin Yusupov O‘ZBEKISTONNING QADIMGI DAVRDAGI ME‘MORIY YODGORLIKLARI.....	74



Erkinjon Xabibullayevich Kenjayev,
Namangan davlat universiteti
“Tarix” kafedrasida katta o‘qituvchisi

XVI–XIX ASRLARDA MARKAZIY OSIYODA TA’LIM TIZIMINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI: O‘QUV DASTURLARI VA SXOLASTIKA MUAMMOSI

For citation: Erkinjon Kh.Kenjayev. INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF THE EDUCATION SYSTEM IN CENTRAL ASIA IN THE 16TH–19TH CENTURIES: THE PROBLEM OF CURRICULUM AND SCHOLASTICISM. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 5/2.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20401602>

АННОТАЦИЯ

Мақолада XVI–XIX asrlarda Markaziy Osiyo davlatlarida ta’lim tizimining tarkibiy tuzilishi, uning asosiy bosqichlari, o‘quv dasturlari va sxolastika muammosi tahlil qilingan. Unda asosiy masala ta’lim tizimida vujudga kelgan turg’unlik holatlarining kelib chiqish sabablari, aniq va tabiiy fanlarga bo‘lgan e’tiborning susayishi hamda uning oqibatlariga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo, o‘zbek xonliklari, ta’lim tizimi, boshlang‘ich maktablar, madrasalar, o‘quv dasturlari, sxolastika, mantiq ilmi, islom dini.

Кенжаев Эркинжон Хабибуллаевич,
старший преподаватель кафедры «История»
Наманганского государственного университета

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В XVI–XIX ВЕКАХ: ПРОБЛЕМА УЧЕБНОЙ ПРОГРАММЫ И СХОЛИСТИЗМА

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется структурная структура системы образования в странах Центральной Азии в XVI–XIX веках, её основные этапы, учебные планы и проблема схоластики. Основной вопрос касается причин стагнации в системе образования, снижения внимания к точным и естественным наукам и её последствий.

Ключевые слова: Центральная Азия, узбекские ханства, система образования, начальные школы, медресе, учебные планы, схоластика, логика, ислам.

Erkinjon Kh.Kenjayev,
Senior Lecturer, Department of “History”,
Namangan State University

INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF THE EDUCATION SYSTEM IN CENTRAL ASIA IN THE 16TH–19TH CENTURIES: THE PROBLEM OF CURRICULUM AND SCHOLASTICISM

ABSTRACT

The article analyzes the structural structure of the education system in the Central Asian countries in the 16th–19th centuries, its main stages, curricula, and the problem of scholasticism. The main issue is the causes of stagnation in the education system, the decline in attention to the exact and natural sciences, and its consequences.

Index Terms: Central Asia, Uzbek khanates, education system, primary schools, madrasas, curricula, scholasticism, logic, Islam.

Dolzarbliigi:

Temuriylar saltanatining parchalanishi va mintaqada Shayboniylar, soʻngra Ashtarxoniyalar hamda uchta mustaqil davlat (Buxoro amirligi, Xiva va Qoʻqon xonliklari)ning tashkil topishi taʼlim tizimida ham muayyan transformatsion jarayonlarni keltirib chiqardi. Ushbu davrda taʼlim nafaqat bilim berish maskani, shu bilan birga jamiyatning ijtimoiy-diniy qadriyatlarini saqlab qoluvchi eng mustahkam institutsional tizimga aylandi.

Metodlar va oʻrganilganlik darajasi:

Maqolada umumqabul qilingan ilmiylik, tarixiylik, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan. Maqolani yozishda V. V. Bartolʼd, M. Xayrullayev va D. A. Alimovalarning tadqiqotlariga tayanildi.

Tadqiqot natijalari:

XVI asrdan boshlab Markaziy Osiyo madrasalari islom olamining sharqiy qismida oʻz nufuzini saqlab qoldi. Buxoro shahri “Qubbatul islom” maqomida nafaqat mahalliy aholi, shu bilan birga Volgaboʻyi, Kavkaz, Afgʻoniston va Hindistondan kelgan talabalar (mullabachchalar) uchun ham asosiy bilim oʻchogʻi boʻlib xizmat qildi [1. B. 45]. Biroq, ushbu davr taʼlim tizimining oʻziga xos xususiyati shunda ediki, unda klassik anʼanalar va konservativizm oʻrtasidagi muvozanat ikkinchi taraf foydasiga ogʻa boshladi.

Maʼlumki, oʻsha davrda Markaziy Osiyoda taʼlim tizimi anʼanaviy ravishda ikki bosqichga boʻlingan: boshlangʻich taʼlim (maktab) va oliy taʼlim (madrasa). Maktablar asosan, masjidlar qoshida tashkil etilib, unda bolalarga 6–7 yoshdan savod chiqarish, Qurʼon suralarini yodlatish va odob-axloq qoidalari oʻrgatilgan. Madrasa esa murakkabroq tuzilmaga ega boʻlib, u yerda taʼlim muddati cheklanmagan edi – talaba oʻz qobiliyatiga qarab 10 yildan 20 yilgacha taʼlim olishi mumkin boʻlgan.

Akademik manbalar va tarixiy vaqfnomalar tahlili shuni koʻrsatadiki, Oʻrta Osiyoda madrasa taʼlimi uchta bosqichga boʻlingan:

1. Adno (pastki bosqich). Ushbu bosqichda talabalar arab tili grammatikasini mukammal oʻrganishga kirishganlar va “Muxtasar ul-viqoya” kabi fiqhga oid dastlabki qoʻllanmalarni oʻqiganlar.

2. Avsat (oʻrta bosqich). Mazkur bosqichda mantiq, falsafa (hikmat) va ilohiyot (kalom) fanlari chuqur oʻrgatilib, talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyati mantiqiy bahslar orqali shakllantirilgan.

3. Aʼlo (yuqori bosqich). Ushbu bosqichda eng murakkab fihiy asarlar, tafsir (Qurʼon sharhi) va hadisshunoslik oʻrgatilgan hamda uni tamomlaganlarga mudarrislik yoki qozilik qilish huquqini beruvchi maxsus “ijozatnoma” berilgan.

Madrasalarning moddiy taʼminoti vaqf tizimiga asoslangan edi. Shuning uchun davlat va ayrim shaxslar madrasalarga yer maydonlari, doʻkonlar hamda karvonsaroylarni vaqf qilib berganlar. Bunday mablagʻlar hisobiga mudarrislariga maosh berilgan, talabalarga esa stipendiya (vazifa) tayinlangan va bepul hujralar (yotoqxona) bilan taʼminlangan. Mazkur tizim oʻz navbatida hatto eng qashshoq oila vakillariga ham oliy maʼlumot olish imkoniyatini yaratgan [2. C. 210].

XVI–XIX asrlar Markaziy Osiyo madrasalarida qoʻllanilgan oʻquv dasturi oʻz mohiyatiga koʻra “Dars-i Nizomiy” anʼanalariga yaqin boʻlib, unda fanlar ikki guruhga boʻlingan: “naqliy”

(diniy va an'anaviy) hamda "aqliy" (mantiqiy hamda tabiiy) ilmlar. Ta'lim arab tilini o'rganishdan boshlangan, chunki islom huquqi va ilohiyotning asosiy manbalari ushbu tilda bitilgan edi. "Avvali ilm" deb nomlangan qo'llanmalardan so'ng Mir Sayid Sharif Jurjoniy va Sa'duddin Taftazoniyning grammatikaga oid sharhlari o'qitilgan. Ta'lim tili sifatida fors va turkiy tillar ham keng qo'llanilgan, ayniqsa, badiiy-axloqiy ta'limda Navoiy, Jomiy hamda Sa'diy asarlari muhim rol o'ynagan.

Markaziy Osiyo madrasalarida mantiq ("Ilm al-mantiq") fani juda yuksak qadrlangan. Aristotel mantiqi islom kalomi bilan uyg'unlashgan holda o'qitilgan, bu esa o'z navbatida talabalarda bahs va munozaralarda ("munozara") o'z fikrini dalillash san'ati ko'nikmasini shakllantirgan [3. B. 102]. Biroq, vaqt o'tishi bilan falsafiy mushohadalar o'rnini diniy aqidalarni mantiqiy isbotlashga yo'naltirilgan sxolastik bahslar egallagan.

O'sha davrda "Sxolastika" fani o'quv dasturining markazida turgan. Markaziy Osiyoda asosan, Hanafiy mazhabi huquqshunosligi o'rgatilgan. Burhoniddin Marg'noniyning "Al-Hidoya" asari va unga yozilgan ko'plab sharhlar asosiy darslik hisoblangan. Fiqhni o'rganish talabani ijtimoiy hayot, davlat boshqaruvi va huquqiy munosabatlarni tartibga solishga tayyorlagan.

XVI asrdan boshlab Markaziy Osiyo ilmiy muhitida "ijtihad" (yangi huquqiy yoki ilmiy xulosalar chiqarish) eshiklari yopilib, "taqlid" (avvalgi olimlarning fikrlarini so'zsiz qabul qilish) davri boshlangan, bu esa o'z navbatida ilm-fanda sxolastikaning kuchayishiga olib kelgan.

Sxolastikaning asosiy ko'rinishi – "Sharh" va "Hoshiya" yozish an'anasidir. Olimlar yangi ilmiy kashfiyotlar qilish o'rnini o'tmishdagi allomalarning asarlariga izohlar yozish va matnlarni lug'aviy tahlil qilish bilan cheklangan. Masalan, Ibn Sinoning tibbiyotga oid asarlari yangi eksperimental bilimlar bilan boyitilmagan, aksincha, faqatgina uning matnlarini sharhlash bilan shug'ullanilgan [4. B. 56]. Bu esa Yevropada yuz berayotgan Ilmiy inqilob (teleskop, mikroskop, bosmaxona) yutuqlaridan Markaziy Osiyoning uzilib qolishiga sabab bo'lgan.

Mudarrislar va talabalar orasida "quruq mantiq" ustuvor bo'lib qolgan. Bahslar ob'yektning asl mohiyatini anglashga emas, balki so'zlarning grammatik qurilishi va mantiqiy predikatlar ustida kechadigan bo'lgan. Bunday holatni keyinchalik Ahmad Donish "vaqtni behuda sarflash" va "aqliy qulchilik" deb atagan edi [5. B. 215].

Madrasa nafaqat o'quv maskani, shu bilan birga o'ziga xos "ilmiy kommuna" ham edi. Har bir madrasa hujralarga bo'lingan bo'lib, unda bir yoki ikki nafar talaba istiqomat qilgan. Talabalarning kundalik hayoti qat'iy tartib-intizomga asoslangan. Bomdod namozdan so'ng mudarris bilan dars boshlangan, mashg'ulotlar odatda, madrasaning ichki hovlisi yoki maxsus darsxonalarda o'tilgan.

Mazkur davrda "Munozara" madaniyati yaxshi rivojlangan. Talabalar ikki guruhga bo'linib, muayyan fihiy yoki mantiqiy masala ustida bahs yuritganlar. Bunday usul talabaning nutq mahorati va tezkor fikrlashini rivojlantirgan bo'lsa-da, bahslarning ko'lami cheklangan edi [6. B. 312]. Shunga qaramay, madrasa muhiti o'ziga xos intellektual elitani shakllantirgan, talabalar esa jamiyatning ma'naviy va huquqiy rahnamolari bo'lib yetishgan.

XVI–XIX asrlarda Markaziy Osiyo ta'lim tizimi murakkab institutsional tuzilmaga ega bo'lib, u jamiyatning intellektual salohiyatini saqlab qoluvchi yagona mexanizm edi. Garchi, sxolastika va konservatizm ilmiy progressga to'sqinlik qilgan bo'lsa-da, madrasalar tizimi klassik Sharq ilm-fanini asrab-avaylagan. Aynan shunday madrasa ta'limidan keyinchalik Ahmad Donish, Is'hoqxon Ibrat va jadidlar kabi islohotchilar yetishib chiqqan. Ular eski tizimning kuchli va kuchsiz tomonlarini anglagan holda, milliy uyg'onish poydevorini yaratganlar [7. B. 14].

XVI–XIX asrlarda Markaziy Osiyo ilmiy-ma'rifiy muhitida kechgan murakkab jarayonlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ushbu davr faqatgina "turg'unlik" emas, balki intellektual merosni asrab qolish va yangi zamonga moslashish bosqichi bo'lgan. Madrasalardagi sxolastik an'analar va mintaqaning iqtisodiy izolyasiyasi ilmiy progressni sekinlashtirgan bo'lsa-da, aynan shunday muhitdan keyinchalik hammaga tanish islohotchilar avlodi yetishib chiqqan.

Bugungi kunda O'zbekiston o'z oldiga qo'ygan "Uchinchi Renessans" strategik maqsadi zamirida aynan o'sha davr ma'rifatparvarlarining orzu va intilishlari yotibdi. Tarix bizga bergan eng

katta saboq shundaki, ilm-fan dunyodan uzilib qolgan va faqat o‘tmishni takrorlash bilan cheklangan joyda tanazzul muqarrardir.

Xulosa:

Xulosa sifatida shuni qayd etish kerakki, hozirgi zamonning raqamli transformatsiyasi, innovatsion ta’lim tizimi va global ilmiy hamjamiyat bilan integratsiyalashuvi – XIX asr ziyolilari orzu qilgan “ma’rifatli jamiyat”ning zamonaviy ko‘rinishidir. Shunga ko‘ra, XVI–XIX asrlar ilmiy merosini o‘rganish nafaqat o‘tmish haqida ma’lumot beradi, shu bilan birga bugungi kunda ilm-fanni ijtimoiy va iqtisodiy yuksalishning asosiy drayveriga aylantirishda muhim metodologik manba bo‘lib ham xizmat qiladi. Zero, haqiqiy uyg‘onish – milliy qadriyatlarni zamonaviy dunyoviy ilmlar bilan sintez qilish orqaligina saqlab qolishdir.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Jumanazar A. Buxoro ta’lim tizimi tarixi. – Toshkent: Akademiya, 2017. – B. 45.
2. Бартольд В. В. История культурной жизни Туркестана / Сочинения. Т. II. Ч. 2. – М.: Наука, 1968. – С. 210.
3. Хайруллаев М. М. Ўрта Осиёда фикрлар ривож тарихидан. – Тошкент: Фан, 1993. – Б. 102.
4. Сайидзода Ж. Бухоро мадрасаларидаги таълим тизими ва схоластик анъаналар. – Душанбе: Ирфон, 2012. – Б. 56.
5. Аҳмад Дониш. Наводирул-вақое. – Тошкент: Фан, 1964. – Б. 215.
6. Садриддин Айний. Эсдаликлар. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. – Б. 312.
7. Алимова Д. А. Жадидчилик ҳаракатининг ижтимоий-сиёсий ва маърифий моҳияти. – Тошкент: Академия, 2010. – Б. 14.



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000